



Sirdaryo viloyati

Yangiyer shahar

1-umumiy o'rta ta'lim maktabining

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ergasheva Ra'noning

3-sinflar uchun "Tabiatshunoslik"

fanidan yozgan

DARS ISHLANMASI

Mavzu: Dorivor o'simliklar

Mavzu: Dorivor o`simliklar

Mavzuga doir tayanch tushunchalar: Dorixona, yalpiz, isiriq kashnich, jag`jag`, na`matak.

Soatlar soni: 1 soat.

Mavzuning qisqacha ta'rifi: Dorivor o`simliklar nomlari va ularning shifobaxsh xususiyatlari haqida ma`lumot beriladi.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod: Tarmoqlash, muommoli vaziyat, blits so`rov, suhbat

Shakl: jamoa, guruh bilan ishlash.

Jihoz: darslik, dorivor o`simliklar na`munalari, dorivor o`simliklardan tayyorlangan dorilar va sharbatlar, kompyuter multimedia, tarqatmalar.

Nazorat: O'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy- o'quvchilarga dorivor o`simliklar haqida ma`lumot berish. Kundalik hayotda ulardan foydalanishni o`rgatish.

Tarbiyaviy- mavzu asosida tabiatga mehr uyg`otish. Dorivor o`simliklarni ko`paytirishga, sog`liqlariga nisbatan e`tiborli bo`lishga undash.

Rivojlantiruvchi- ilmiy dunyoqarashlarini kengaytirish, o`simliklar haqidagi bilimlarini kengaytirish. Mantiqiy fikrlashga o`rgatish.

Kutilayotgan natija

Dars yakunida o`quvchilar dorivor o`simliklarning nomlarini bilib olishadi. Dorixonada o`zini tutish odobini bilib olishadi.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.	suhbat	3 daqiqa
2-bosqich (Refleksiya) ehtiyajlarni aniqlash	Tarmoqlash usulida manzarali daraxt buta va gullar nomlarini yozishadi. Tezkor savol javob o'tkaziladi.	Tarmoqlash tezkor savol javob	12 daqiqa
3-bosqich darsning borishi.	Muammoli vaziyat sifatida saxna ko'rinishi qo'yiladi. Sinf uch guruhga bo'linadi. Dorivor o'simliklar haqida ma'lumot beriladi.	Muommlil vaziyat	15 daqiqa
4-bosqich Mustahkamlash	Guruhlar boshqotirma yechishadi. Eng, eng, eng, ma'lumotlari beriladi.	Boshqotirma izlanish	10 daqiqa
5-bosqich Baholash Darsni yakunlash	O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytinggi e'lon qilinadi.		3 daqiqa
6-bosqich	Savollarga yozma javob yozish dorivor o'simliklarni rasmini chizish topshiriladi		2 daqiqa

Mavzu: Dorivor o'simliklar

Darsning maqsadi:

Ta'limiy- o'quvchilarga dorivor o'simliklar haqida ma'lumot berish. Kundalik hayotda ulardan foydalanishni o'rgatish.

Tarbiyaviy- mavzu asosida tabiatga mehr uyg'otish. Dorivor o'simliklarni ko'paytirishga, sog'liqlariga nisbatan e'tiborli bo'lishga undash.

Rivojlantiruvchi- ilmiy dunyoqarashlarini kengaytirish, o'simliklar haqidagi bilimlarini kengaytirish. Mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Dars turi: Yangi materialni o'rganish

Dars usuli: tarmoqlash, muammoli vaziyat, blits so'rov, suhbat

Dars jihozi: darslik, dorivor o'simliklar namunalari, dorivor o'simliklardan tayyorlangan dorilar va sharbatlar, kompyuter, multimedia, tarqatmalar

Darsning borishi:

I bosqich: Darsni tashkil qilish jarayoni (3 min)

Salomlashiladi:

Qani ayting bolalar

Kim navbatchi bo'ladi?

Bugunning hisobini

Menga aytib beradi.

So'zlang hozir qaysi dars,

Tayyormisiz saboqqa?

A'lo baho olish uchun

Aniq to'g'ri javobga?

Navbatchi hisobot topshiradi

-Hozir qaysi oy? Qaysi yil?


- Bu oyda qanday sanalar nishonlanadi?

II bosqich: O'tilgan va uyga berilgan mavzuni so'rash jarayoni (12 min)

Manzarali daraxt, buta va gullar mavzusi bo'yicha o'quvchilar chizib kelgan rasmlar ko'rib chiqiladi.

Sinf uch guruhga ajratiladi.

Tarmoqlash usulida manzarali daraxt, buta va gullar nomlarini yozishadi.



Tezkor savol-javob:

- Manzarali daraxtlarni qayerlarda uchratamiz?
- Ular nima uchun ekiladi?
- Hovlilarda nima ekiladi?
- Landshaft dizayneri kim?
- Gullar qayerga ekiladi?
- Maktab gulzoriga qanday gullar ekiladi?
- Atirgul qanday parvarish qilinadi?

III bosqich: Yangi mavzuni tushuntirish jarayoni (15 min)

Muammoli vaziyat

Dori sotuvchining oldiga bir bola kelib:

- Salom, sizda bosh og'rig'I dorisi topiladimi?
 - Ha, bor.
 - Berib yuboring.
 - Mana kuniga 2 marta ichiladi.
 - Bu dorini ichganimdan keyin boshim tuzalib, boshqa joyimga salbiy ta'sir qilmaydi-mi?
 - Yoq, buning zararli tomoni yo'q. Chunki bu dori dorivor o'simliklardan tayyorlangan.
 - Dorivor o'simliklar nima?
- O'qituvchi: -Bu savolga dars davomida javob olamiz.

Mavzu doskaga yoziladi. O'tgan darsda qo'shimcha topshiriq sifatida "Dorivor o'simliklar haqida ma'lumot to'plash topshirilgan berilgan". Shu sababdan 3ta guruh ma'lumotlar berishadi.

1-guruh: Yalpiz,



Jag'-jag' haqida

2-guruh: Isiriq,



Kashnich haqida

3-guruh: Maymunjon



Na'matak haqida

IV bosqich: Yangi mavzuni mustahkamlash jarayoni (10 min)

Boshqotirma

			Y			
1			A			
		2	L			
3			P			
		4	I			
5			Z			

Yalpiz

1. Ming dardga davo o'simlik
2. Tog'da o'sadigan gul
3. Oshga qo'shib yeyiladigan sabzavot
4. Meva nomi
5. Gullar ochiladigan joy

			I		
1			S		
2			I		
	3		R		
	4		I		
		5	Q		

Isiriq

1. O'tlardan tayyorlanadigan taom
2. Guruch olinadigan o'simlik
3. Manzarali daraxt
4. Meva
5. Poliz ekini

			T		
	1		A		
	2		R		
3			V		
	4		U		
5			Z		

Tarvuz

1. Oq oltin
2. Hasharot
3. Parranda
4. Ko'p yil dur beradigan meva
5. Qishdan oldin keladigan fasl

Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.

Hoy olma, olma, olma,

Meni ovvora qilma.
Biroz egil, bo'y cho'zay,
Olmalaringdan uzay.

Eng, eng, eng ma'lumotlar beriladi.

1. Dunyodagi eng yirik qush TUYAQUSH
2. Eng kichik qush KALIBRI
3. Dunyodagi eng kata yirtqich hayvon AYIQ, uzunligi 3 metr, og'irligi 700 kg
4. Eng uyquchi hayvon YUMRONQOZIQ. Yil bo'yi 9 oy uxlaydi
5. Yirtqichlarning ichida eng yuragi kichik hayvon SHER
6. Eng terisi qalin hayvon BEGEMOT. Terisining qalinligi 2.5 sm(Filniki 2 sm)

V bosqich: Darsni yakunlash. O'quvchilarni baholash jarayoni (3 min)

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI bosqich: Uyga vazifa berish. (2 min)

Darslikda berilgan savollarga yozma javob yozing. Dorivor o'simliklar rasmini chizing.